YURT POSBONLARI

1. Konstitutsiya iborasi nimani anglatadi?

A) tasdiqlash

B) barcha javoblar to‘g‘ri

S) belgilash

D) o‘rnatish

2. O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatining birdan bir manbai ...

A) Xalq

B) Qonun

S) Hukumat

D) Saylovchilar

3. O‘zbekiston Respublikasi hukumati qanday nomlanadi?

A) Bosh vazir devoni

B) Vazirlar Kengashi

V) Prezident devoni

G) Vazirlar Mahkamasi

4. Transport vositalarini qancha muddatgacha ushlab turish mumkin?

A) ushlab turish sababi bartaraf etilgunga hamda ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish ko‘rilgunga qadar

B) ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish ko‘rilgunga qadar o‘n sutkagacha

V) 24 soatgacha

G) bir oygacha

5. To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazish tartibiga doir talablarga rioya etmaslik huquqbuzarligi uchun qanday ma’muriy jazo choralari belgilangan?

A) maxsus huquqdan mahrum qilish jazosi belgilangan

B) buyumlarni musodara qilib, jarima jazosi belgilangan

V) jarima jazosi belgilangan

G) ma’muriy qamoq jazosi belgilangan

6. Quyidagilardan qaysilari maxsus transport vositalariga mansub?

@IIVXTV

A) yalt-yalt etuvchi chiroq-mayoqcha va tovushli ishoralari bilan jihozlangan tez tibbiy yordam ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan transport vositalari

B) yalt-yalt etuvchi chiroq-mayoqcha va tovushli ishoralari bilan jihozlangan Ichki ishlar organlari transport vositalari

V) yalt-yalt etuvchi chiroq-mayoqcha va tovushli ishoralari bilan jihozlangan o’t o’chirish uchun mo’ljallangan transport vositalari

G) barcha javoblar to’g’ri

7. O’zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida o‘lim jazosi qachon bekor qilindi?

A) 2008 yil 1 yanvardan boshlab

B) 2007 yil 23 dekabrdan boshlab

V) 2005 yil 18 maydan boshlab

G) 2004 yil 10 avgustdan boshlab

8. O‘g‘rilik bu . . .

A) o‘zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish

B) aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan o‘zganing mulkini yoki o‘zganing mulkiga bo‘lgan huquqni qo‘lga kiritish

V) o‘zganing mulkini ochiqdan-ochiq talon-toroj qilish

G) o‘zganing mol-mulkini talon-toroj qilish maqsadida hujum qilib, hayot yoki sog‘liq uchun xavfli bo‘lgan zo‘rlik ishlatib yoxud shunday zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish

9. Kim shaxsni jinoyat sodir etishda aybdor deb topa oladi?

A) prokuror

B) tergovchi

V) sudya

G) barcha javoblar to’g’ri

10. O‘zbekiston Respublikasining asosiy qonuni bu…

A) "O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida"gi Konstitutsiyaviy qonun

B) "O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis to‘g‘risida"gi Konstitutsiyaviy qonun

S) Konstitutsiyaviy sud qarori

D) Konstitutsiya

11. O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati tizimi qanday bo‘linish prinsipiga asoslangan?

A) Ichki ishlar, sud, prokuratura

B) Mahalliy hokimiyat, prokuratura, sud hokimiyati

S) Adliya vazirligi, qonun chiqarish, sud hokimiyati

D) Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati

12. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi necha bo‘lim, bob va moddadan iborat?

A) 7 bo‘lim, 26 bob, 129-moddadan

B) 7 bo‘lim, 27 bob, 128-moddadan

S) 6 bo‘lim, 27 bob, 129-moddadan

D) 6 bo‘lim, 26 bob, 128-moddadan

13. Firibgarlik bu ...

A) aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan o‘zganing mulkini yoki o‘zganing mulkiga bo‘lgan huquqni qo‘lga kiritish

B) o‘zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish

V) o’zganing mol-mulkini talon-toroj qilish maqsadida hujum qilib, hayot yoki sog‘liq uchun xavfli bo‘lgan zo‘rlik ishlatib yoxud shunday zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish

G) o‘zganing mulkini ochiqdan-ochiq talon-toroj qilish

14. Karantinli va inson uchun xavfli bo‘lgan boshqa yuqumli kasalliklar paydo bo‘lishi hamda tarqalishi sharoitida tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasining ijrosi qaysi organlar tomonidan ta’minlanadi?

A) O‘zbekiston Respublikasi Davlat sanitariya nazorati organlari

B) O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari

V) O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlari

G) Barcha javoblar to‘g‘ri

15. Haydovchilarning transport vositalarini mast holda boshqarganligi uchun qanday ma’muriy jazo choralari qo‘llaniladi?

A) ma’muriy jarima jazosi qo‘llaniladi

B) transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum qilib, ma’muriy jarima jazosi qo‘llaniladi

V) transport vositasini musodara qilib, ma’muriy jarima jazosi qo‘llaniladi

G) ma’muriy jarima jazosi ma’muriy qamoq jazosi

16. Yalt-yalt etuvchi chiroq-mayoqcha va tovushli ishoralari bilan jihozlangan maxsus transport vositalari qachon imtiyozga ega?

A) ko‘k yoki ko‘k va qizil rangli yalt-yalt etuvchi chiroq-mayoqchasi yoqilgan biron-bir kechiktirib bo‘lmas xizmat vazifalarini bajarayotgan maxsus transport vositalari

B) ko‘k yoki ko‘k va qizil rangli yalt-yalt etuvchi chiroq-mayoqchasi yoqilmagan maxsus transport vositalari harakatlanish yo‘nalishida

V) yalt-yalt etuvchi chiroq-mayoqcha va tovushli ishoralari bilan jihozlangan o‘t o‘chirish uchun mo‘ljallangan transport vositalari xohlagan vaqtda

G) ko‘k yoki ko‘k va qizil rangli yalt-yalt etuvchi chiroq-mayoqchasi o‘rnatilgan transport vositalari o‘zlari xohlagan vaqtda

17. O‘zbekiston xalqi nomidan kimlar ish olib borishi mumkin?

A) Prezident va Bosh vazir

B) Oliy Majlis va Vazirlar mahkamasi

S) Oliy Majlis va Prezident

D) Bosh Prokuror, diplomat va muxtor elchilar

18. O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar...

A) umumiy asoslarda ma’muriy javobgarlikka tortiladilar

B) javobgarligi diplomatik yo‘l bilan hal etiladi

V) uchun cheklangan ma’muriy javobgarlik belgilangan

G) ma’muriy javobgarlikka tortilmaydilar

19. Karantinli va inson uchun xavfli bo‘lgan boshqa yuqumli kasalliklar paydo bo‘lishi hamda tarqalishi sharoitida tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasi necha sutkagacha qo‘llanilishi mumkin?

A) uch sutkagacha

B) o‘n sutkagacha

V) o‘n besh sutkagacha

G) o‘ttiz sutkagacha

20. Yo‘l harakati qoidalarini buzgan transport vositalari haydovchilari agar, ushbu jarimani 15 sutka ichida to‘lasa, ularga joriy etilgan imtiyozni ko‘rsating?

A) sodir etgan qoidabuzarligiga belgilangan jarimaning 70 foizi miqdorida jarima undirilishi belgilab qo‘yildi

V) sodir etgan qoidabuzarligiga belgilangan jarimaning 60 foizi miqdorida jarima undirilishi belgilab qoyildi

G) sodir etgan qoidabuzarligiga belgilangan jarimaning 80 foizi miqdorida jarima undirilishi belgilab qo’yildi

21. Transport vositalarida qayrilib olish taqiqlangan joylarni ko’rsating?

A) piyodalarning o‘tish joylarida, temir yo‘l kesishmalarida

B) tunnellarda, ko‘priklar, yo‘l o‘tkazgichlar, estakadalar va ularning ostida

V) yo‘lning ko‘rinishi biror-bir yo‘nalishda 100 metrdan kam bo‘lgan joylarda.

G) barcha javoblar to‘g‘ri

22. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi to‘g‘risidagi Deklaratsiya qachon qabul qilingan?

@JIVXTV

A) 1992 yilning 29 dekabrida

B) 1990 yilning 20 iyunida

S) 1991 yilning 31 avgustida

D) 1991 yilning 1 sentyabrida

23. O‘zbekiston Respublikasida nechta siyosiy partiyalar mavjud?

A) 3 ta

B) 4 ta

S) 5ta

D) 6 ta

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylanish uchun fuqaro necha yoshga to‘lgan bo‘lishi lozim?

A) 45

B) 25

S) 28

D) 35

25. Ma’muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxs ish materiallari bilan tanishib chiqish huquqiga egami?

A) huquqbuzarning ish materiallari bilan tanishib chiqishni ishni ko‘rib chiqayotgan organ hal qiladi

B) huquqbuzar ish materiallari bilan tanishib chiqish huquqiga ega

V) huquqbuzar o‘zining so‘zi bilan rasmiylashtirilgan hujjatlar bilan tanishib chiqishi mumkin

G) huquqbuzar ish materiallari bilan tanishib chiqish huquqiga ega emas

26. O‘zbekiston Respublikasi hududidan ma’muriy tarzda chiqarib yuborish jazosi kimlarga nisbatan qo‘llaniladi?

A) O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyiga ega bo‘lgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga

B) O‘zbekiston Respublikasida vaqtincha yashayotgan chet el fuqarolariga

V) O‘zbekiston Respublikasining fuqarolariga

G) barcha javoblar to‘g‘ri

27. Qanday shaxslarga nisbatan jinoyat uchun javobgarlik o‘rnatiladi?

A) fuqaroviy-huquqiy huquqbuzarlik sodir etgan

B) intizomiy huquqbuzarlik sodir etgan

V) ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan

G) jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan

28. Bosqinchilik bu ...

A) aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan o‘zganing mulkini yoki o‘zganing mulkiga bo‘lgan huquqni qo‘lga kiritish

B) o‘zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish

V) o‘zganing mulkini ochiqdan-ochiq talon-toroj qilish

G) o‘zganing mol-mulkini talon-toroj qilish maqsadida hujum qilib, hayot yoki sog‘liq uchun xavfli bo‘lgan zo‘rlik ishlatib yoxud shunday zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish

29. “Odam savdosi” deganda nima tushuniladi?

A) odamni undan foydalanish maqsadida olish-sotish

B) odamni undan foydalanish maqsadida yollash yoki tashish

V) odamni undan foydalanish maqsadida yashirish yoki qabul qilish

G) barcha javoblar to‘g‘ri

30. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?

A) 1991 yil 1 sentyabrda

B) 1991 yil 31 dekabrda

S) 1990 yil 20 iyunda

D) 1992 yil 8 dekabrda

31. Voyaga yetmagan shaxs tomonidan huquqbuzarlik sodir etilishi bu...

A) javobgarlikni istisno qiluvchi holat

B) ma’muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi holat

V) ma’muriy javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat

G) ma’muriy javobgarlikdan ozod etish uchun asos bo‘ladi

32. Voyaga yetmagan shaxsning ko‘ngil ochish (dam olish) joylarida tungi vaqtda bo‘lishiga yo‘l qo‘yish huquqbuzarligi uchun kimlar javobgarlikka tortiladilar?

A) ota-onasi

B) vasiy yoki qaramog‘iga olgan shaxslar

V) ko‘ngil ochish (dam olish) joylarining rahbarlari yoki mas’ul shaxslari

G) voyaga yetmagan shaxslarning o‘zlari

33. Karantinli va inson uchun xavfli bo‘lgan boshqa yuqumli kasalliklar paydo bo‘lishi hamda tarqalishi sharoitida maxsus talablariga zid ravishda jamoat joylarida niqobsiz bo‘lish qanday huquqbuzarlik hisoblanadi?

A) sanitariya qonun hujjatlarini buzish

B) gigiena normativlarini buzish

V) epidemiyalarga qarshi kurash qoidalarini buzish

G) barcha javoblar to‘g‘ri

34. Piyodalarga yo‘lning qatnov qismini qayerlardan kesib o‘tishga ruxsat etiladi?

A) piyodalar o‘tish joylaridan

B) yer osti va yer usti o‘tish joylaridan

V) chorrahalardan trotuar chiziqlari yoki yo‘l yoqasi bo‘ylab

G) barcha javoblar to‘g‘ri

35. Nechchi yoshga to‘lmagan bolalarni mototsiklning orqa o‘rindig‘ida, shuningdek yengil avtomobilga bolalarni ushlab turuvchi maxsus qurilma o‘rnatilmagan bo‘lsa, uning oldingi o‘rindig‘ida tashish taqiqlanadi?

A) 12 yoshga to‘lmagan bolalarni

B) 8 yoshga to‘lmagan bolalarni

V) 10 yoshga to‘lmagan bolalarni

G) 7 yoshga to‘lmagan bolalarni

36. Jinoyat qonuni bo‘yicha umumiy javobgarlik yoshi necha yosh deb belgilangan?

A)16 yosh

B) 14 yosh

V) 13 yosh

G) 18 yosh

37. Quyidagi jumlalardan qaysi biri Konstitutsiyaning muqaddimasida o‘z aksini topmagan?

A) Xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olish

B) Inson huquqlariga va davlat suvereniteti g‘oyalariga sodiqligini tantanali e’lon qilish

S) Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilish

D) Insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish

38. Konstitutsiyaga o‘zgartirishni kim qabul qilishi mumkin?

A) Barcha javoblar to‘g‘ri

B) Oliy Majlis

S) Konstitutsiyaviy sud

D) O’zbekiston Respublikasi Prezidenti

39. O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish bu -

A) Har bir fuqaroning burchi

B) Har bir shaxsning burchi

S) Har bir shaxsning qarzi

D) Har bir shaxsning erkinligi

40. Qaysi organ O‘zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi organidir?

A) Prezident

B) Oliy Majlis

S) Vazirlar Mahkamasi

D) Oliy sud

Olimpiadaning natijalari @iivxtv telegram kanalida e’lon qilinadi.

@iivxtv